

SAYOHATLARDA XAVFSIZLIKNING UMUMIY ASOSLARI

Xojimurod Xasanov To'ychiboy o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada turistlar xavfsizligining muhurligi, ular sayohatlarini boshlashdan oldin qanday sohalarga e'tibor berishlari kerak ekanligi, hamda davlatlar tomonidan qanday choralar ko'rilganligi haqida ma'lumotlar beriladi.*

Kalit so'z: *Turist, «Turizm xavfsizligi», "Turistlarni sug'urta qilish".*

GENERAL FUNDAMENTALS OF TRAVEL SAFETY

KHojimurod KHasanov Tuychiboy ugli
Student of Chirchik State Pedagogical University

Abstract: *The article provides information on the importance of safety for tourists, what areas they should pay attention to before starting their trip, and what products are considered for the countries.*

Key words: *Tourist. "Tourism safety", "Tourist insurance".*

Turistarga tibbiy yordam berishni tashkil etish va ularning o'zlari bunga tayyor bo'lishlari kerak. Chet el sayyohlari o'z xavfsizliklarini taminlash uchun ko'pgina maslahatlar beriladi.

- Turistlar o'z sayohatlarini alalga oshirishda kiyimlariga ahamiyat berishlari kerak;
- Boriladigan joy iqlimini yaxshi o'rganishi kerak;
- Safarda o'ziga kerak bo'ladigan dori darmonlari o'zi bilan olib olishi kerak;
- Notanish ovqatlarni yeyishda extiyot bo'lishi kerak;
- Suv havzalaridan foydalanishda faqatgina maxsus belgilangan joylardan foydalanish kerak. Taqiqlangan joylarda cho'milmastlik;
- Yorqin rangli taqinchoqlarini taqib yurmastlik. Bu o'g'rilar e'tiborini tortadi;
- Sayyohlar o'z pullariga e'tiborli bo'lishlari kerak. Next pullardan ko'ra xalqaro kiridid kartalardan foydalanish;
- Favquladda holatlar uchun tegishli davlat orginlari raqamini bilishi;
- Kerakli hujjatlar nusxasini elektron nusxalaini tayyorlab olishi.

O'zbekiston sayyohlar uchun Markaziy Osiyodagi eng xavfsiz davlat sifatida tan olinishini ham sayyohlar uchun qulaylik desa bo'ladi.

«Turizm xavfsizligi» keng ma'noli tushuncha bo'lib, turizmدا xavfsizlik turist va uning yuklarining xavfsizligi, turistlik muhit qatnashchilarining muhim hayotiy

qiziqishlarini ichki va tashqi xavflardan, hamda turizm rivojlanishida atrof-muhitni salbiy omillardan himoyalanganligi tushuniladi. Turizmdagi xavfsizlik – bu turist hayoti va sog‘lig‘ini saqlash maqsadida, hamda unga va atrof–muhitga (jamoaga, jamiyatga, davlatga, tabiatga) yetkazilgan zararlarni minimallashtirishga qaratilgan majmualiy tadbirlardir. Dunyoda bo‘lib o‘tayotgan voqea hodisalar xavfsizlik masalasi qanchalik muhimligini ko‘rsatmoqda va bu yerda nafaqat mamlakat ichki tartibi, balki xalqaro darajada muvofiqlashtirish talab etiladi. Turizmda xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi qarorlar turistik faoliyat sohasidagi qonunlarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi "Turizm to‘g‘risida"gi qonunining 20-moddasi "Turistlarni sug‘urta qilish", - deb nomlanib, unda: Turistlarni sug‘urta qilish majburiydir va u turistik faoliyat sub‘yektlari tomonidan sug‘urta faoliyati olib borish huquqiga ega bo‘lgan tegishli sug‘urta tashkilotlari bilan tuziladigan bitimlar asosida amalga oshiriladi, deyiladi. Biror joyga yoki mamlakatga qatnovchi turist mahalliy aholiga qaraganda ko‘proq noqulay omillarga duch keladi. Shuning uchun avvalom bor turistning sog‘lig‘i sug‘urtalanadi. Keyin esa mol-mulki sug‘urtalanadi. Turistning bir kunlik turistik sug‘urtasi o‘rtacha bir yarim dollarga to‘g‘ri keladi. Endi dunyodagi turistlar soni yarim milliard bo‘lib, sayohat 5-7 kun davom etsa, turizmning sug‘urtalash sohasida aylanayotgan mablag‘i hajmini baholash qiyin emas. Turizm rivojlangan mamlakatlarda maxsus tezkor xizmat guruhlari tashkil etilgan bo‘lib, turistga biror kor xol bo‘lsa u telefon orqali o‘zining shaxsiy nomerini aytadi va unga zarur bo‘lgan yordam ko‘rsatiladi. Turizm statistikasiga qaraganda, sug‘urta to‘lash holati har bir 100 ta turistning bittasiga to‘g‘ri keladi. Shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tish joizki, turistlar bilan ro‘y bergan har qanday holatlar sug‘urta kompaniyasi tomonidan tan olinmaydi va unga sug‘urta puli berilmaydi. Sug‘urta o‘z mohiyati jihatidan faoliyatning alohida sohasidir. Baxtsiz hodisa, tabiiy ofat, ish bilan shug‘ullangan kishilarning ehtiyot choralarini ko‘rmaganligi va boshqa sabablar tufayli ziyon ko‘rilishi mumkin. Bu xilda ziyon ko‘rilganda muhofaza qilishning ancha samarali va zarur shakli bor, bu sug‘urtadir. Sug‘urta iqtisodiy munosabatlar tarkibiga kiradi hamda maxsus mablag‘ fondini yaratish tadbirlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur mablag‘ fondidan esa turli voqealar yuz berganda, agar bu voqealar xususida sug‘urta shartnomasida o‘zaro kelishib olingan bo‘linsa, yetkazilgan zaraming o‘rnini qoplash va ziyon ko‘rgan tomonga yordam berish maqsadida foydalaniladi. Ijtimoiy faollik va ish faoliyati g‘oyatda ayj oigan hozirgi sharoitda sug‘urtaning zarurligiga shak-shubha yo‘q, chunki sug‘urtaturm ush va faoliyatning turli jabhalarida ro‘y berayotgan zarar ko‘rishlar o‘rnini jadal qoplashning eng qulay vositasidir. Masalan, bunday hodisalar ishlab chiqarish jarayonida, mahsulotni tashish va undan foydalanishda, transportda baxtsiz hodisalarga duch kelishda, turli xil tabiiy fatlar oqibatida ro‘y berishi mumkin. Sug‘urta faoliyati maxsus qonunlar vositasida aniq belgilab qo‘yiladi. O datda sug‘urta

jarayonlari aksiyadorlar kompaniyalari tom onidan am alga oshiriladi. Sug'urta shartnomaviy munosabat hisoblanib, tom onlardan biri o'ziga yetkazilgan zarar uchun shartnomaga ko'ra haq undirib oladi. Sug'urta shartnomasi sug'urta qiluvchi bilan sug'urta qilinuvchi o'rtasidagi bitim bo'lib, u sug'urta qilishning mazkur turi shartlariga muvofiq har ikki tomon o'rtasidagi majburiyatni tartibga solib turadi. Boshqa shartnomalar kabi sug'urta shartnomasida ham tom onlarning o'zaro roziligi va qonuniy huquqini ifodalovchi muayyan shartlar bo'lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda har bir tashrif buyuruvchi sayyoh o'z xavfsizligi uchun mutloq javobgardur. Chunki sayyohat davomida o'z faoliyatini hisobga olgan holda harakat qilishi ketak. Yuroqidagi maslatlar har bir turist uchun sayohat boshlash va sayohat davomida ularga yordam beradi. Sug'urta xizmatidan foydalanish majburiydir. Barcha tashrif buyuruvchilar o'zlarini va mol mulklarini xavfsizligi uchun ularni sug'urtalashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. <https://kompy.info/samarqand-iqtisodiyot-va-servis-instituti.html?page=218>
2. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/12188-turizmda-sug-urtalash>